

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova</b>   |     |
| Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....                                    | 7   |
| <b>I.Tuychiyeva, Z.Axunova</b>   |     |
| Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....   | 10  |
| <b>D.R.Yuldasheva</b>  |     |
| Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....  | 14  |
| <b>A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova</b>   |     |
| Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati .....  | 20  |
| <b>I.I.Soliyev</b>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari .....  | 26  |
| <b>Sh.D.Xonbabayev</b>   |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....                    | 31  |
| <b>M.S.Xoshimov</b>  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....                                       | 36  |
| <b>L.Z.Xolmurodov</b>  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....   | 41  |
| <b>A.Sh.Bazarbayeva</b>  |     |
| Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....  | 45  |
| <b>N.Sh.Abdiyeva</b>   |     |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....                  | 54  |
| <b>F.A.Boltayeva</b>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....                    | 59  |
| <b>M.E.Maziyayeva</b>  |     |
| Maktabgacha ta'limda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish .....  | 63  |
| <b>D.D.Boymirzayeva</b>  |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari .....   | 67  |
| <b>M.O.Ismailova</b>   |     |
| Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur .....   | 71  |
| <b>G.O.Shaxbazova</b>  |     |
| Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni .....                      | 75  |
| <b>M.F.Bekchonova</b>  |     |
| Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini ..... | 79  |
| <b>X.A.Ibragimov</b>   |     |
| Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari .....  | 83  |
| <b>A.T.Nazarov</b>   |     |
| Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish .....  | 88  |
| <b>D.M.Xusanov</b>   |     |
| O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati.....  | 92  |
| <b>Y.Y.Turakulov</b>   |     |
| Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....  | 96  |
| <b>Sh.G'.Xasanov</b>   |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlarini.....                                | 102 |



UO‘K: 372.881.111.1.81`44

**CHET TILLARINI O‘QITISHDA MASHQLAR TIPOLOGIYASI VA TIZIMIGA  
QO‘YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR****СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ТИПОЛОГИИ И СИСТЕМЕ УПРАЖНЕНИЙ ПРИ  
ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ****MODERN REQUIREMENTS FOR THE TYPOLOGY AND SYSTEM OF EXERCISES IN  
TEACHING FOREIGN LANGUAGES****Bazarbayeva Azizaxon Shokirovna** 

Farg‘ona davlat universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar tipologiyasi va tizimini o‘rganish, ularga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni aniqlash hamda samarali mashqlar tizimini shakllantirishning metodologik asoslarini tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanilgan. Turli davrlarda ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyalari va tizimlariga oid nazariy manbalar o‘rganilgan, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida mashqlarning turli tipologlari (til va nutq mashqlari, retseptiv va reproduktiv mashqlari, kompleks til mashqlari va boshqalar) aniqlangan va tahlil qilingan. Mashqlar tizimiga qo‘yiladigan asosiy talablar belgilangan: kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barcha til aspektlari va nutqiy faoliyat turlarini qamrab olish, qiyinchilik darajasining o‘sib borishi, o‘zaro bog‘liqlik, takroriylik va kommunikativ yo‘naltirilganlik. Shuningdek, zamonaviy til o‘qitish metodikasida mashqlarning ahamiyati va ularga qo‘yilayotgan talablar aniqlangan. Mashqlar chet tili o‘qitish jarayonining asosi hisoblanib, ularni shakllantirish va qo‘llash bir qator omillarga bog‘liq. Samarali mashqlar tizimi kognitiv, lingvistik va kommunikativ jihatlarni muvozanatli tarzda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini samarali shakllantirish imkonini beradi.

**Аннотация**

Данная статья предусматривает изучение типологии и системы упражнений, применяемых при обучении иностранным языкам, определение современных требований к ним, а также анализ методических основ формирования эффективной системы упражнений. В статье использованы методы историко-сравнительного анализа, системного подхода и контекстного анализа. Были изучены теоретические ресурсы по типологиям и системам упражнений, разработанным в разные периоды, проведен их сравнительный анализ. В результате исследования выявлены и проанализированы различные типологии упражнений (языковые и речевые упражнения, рецептивные и репродуктивные упражнения, комплексные языковые упражнения и др.). Установлены основные требования к системе упражнений: развитие познавательных процессов, охват всех языковых аспектов и видов речевой деятельности, возрастание уровня сложности, взаимосвязанности, повторяемости и коммуникативной направленности. Также определено значение упражнений в современной методике обучения языку и предъявляемые к ним требования. Упражнения являются основой процесса обучения иностранному языку, их формирование и применение зависит от ряда факторов. Эффективная система упражнений должна быть направлена на сбалансированное развитие когнитивных, языковых и коммуникативных аспектов. Система упражнений, разработанная на основе современных подходов, позволяет эффективно формировать коммуникативную компетентность изучающих язык.

**Abstract**

This article provides for the study of the typology and system of exercises used in teaching foreign languages, the identification of modern requirements for them, and the analysis of the methodological foundations for the formation of an effective system of exercises. The article uses methods of historical-comparative analysis, systematic approach and contextual analysis. Theoretical sources on typologies and systems of exercises developed in different periods have been studied, a comparative analysis of which has been carried out. As a result of the study, various typologists of exercises (language and speech exercises, prescription and reproductive exercises, complex language exercises, etc.) were identified and analyzed. The basic requirements for the exercise system are established: the development of cognitive processes, the inclusion of all linguistic aspects and types of speech activity, the growing level of difficulty, interdependence, repeatability and communicative orientation. Also, the importance of exercises and the requirements for them have been determined in the methodology of Modern Language Teaching. Exercises are considered the basis of the process of teaching a foreign language, the formation and application of which depends on a number of factors. An effective exercise system should be aimed at the balanced development of cognitive, linguistic and communicative

aspects. A system of exercises developed on the basis of modern approaches makes it possible to effectively formulate communicative competence of language learners.

**Kalit so'zlar:** chet til o'qitish, mashqlar tipologiyasi, mashqlar tizimi, til mashqlari, nutq mashqlari, kommunikativ kompetensiya, retseptiv mashqlar, reproduktiv mashqlar, kompleks til mashqlari, til o'rgatish metodikasi

**Ключевые слова:** обучение иностранному языку, типология упражнений, система упражнений, языковые упражнения, речевые упражнения, коммуникативная компетентность, рецептивные упражнения, репродуктивные упражнения, комплексные языковые упражнения, методика обучения языку

**Key words:** Foreign Language Teaching, exercise typology, exercise system, language exercises, speech exercises, communicative competence, prescription exercises, reproductive exercises, complex language exercises, Language Teaching Methodology

## KIRISH

Til o'rganish jarayoni ko'p qirrali, o'z ichiga ham nazariy bilimlarni, ham amaliy ko'nikmalarni olgan murakkab jarayondir. Bu jarayondagi har bir element bevosita o'qitishning mashqlari bilan bog'liqligi va til materiallari va har bir til ko'nikmasini egallashda o'ziga xos mashq sistemalaridan foydalanishimiz mashqlarning til o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir til ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga xos mashq sistemalariga qo'yilgan talablar mavjud. Masalan, tinglab tushunishga qaratilgan mashqlar quyidagilarni ta'minlashi lozim: • mashqlarning tinglanayotgan xabarining psixologik va lingvistik murakkabligiga mosligi; • tinglash jarayonining boshqa nutq turlari, ayniqsa, gapirish bilan korrelyatsiyalash (bog'lash) imkoni; • tinglab tushunish bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini boshqara olishi; • amaliy maqsadni va ta'lim maqsadini amalga oshirishi [1].

Til o'qitish tizimi ko'p tanlovli savollardan to murakkab muammoli vaziyat mashg'ulotlarigacha bo'lgan mashqlardan iborat jarayon bo'lib, mashqlarning har bir turi o'zining afzalliklariga va noqulayliklariga ega, ular o'rganuvchilar motivatsiyasiga ta'siri bilan farqlanadi. O'z navbatida, mashqlar o'qituvchilarni baholashning turli usullari bilan ta'minlaydi. Dars jarayonida turli mashqlardan foydalanish o'rganuvchilarga nazorat qilinayotganlik hissini beradi, shuningdek, o'rganilayotgan mavzuni takrorlash imkonini yaratadi. Takrorlash uzoq muddatli bilim olishning muhim tarkibiy qismidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda asosan quyidagi metodlardan foydalanilgan:

**Tarixiy-qiyosiy tahlil:** Turli davrlarda ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyalari va tizimlari o'rganildi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

**Tizimli yondashuv:** Mashqlar tizimining tarkibiy qismlari, ular orasidagi o'zaro aloqalar va tizimga qo'yiladigan talablar kompleks ravishda o'rganildi.

**Kontekstual tahlil:** Mashqlarning til o'rgatish jarayonidagi o'rni va ahamiyati zamonaviy metodika kontekstida tahlil qilindi.

**Sintez:** Turli olimlar va metodistlarning qarashlari asosida mashqlar tipologiyasi va tizimiga oid yangicha yondashuvlar ishlab chiqildi.

Mashqlar tipologiyasi mashqlarni mavjud xususiyatlariga ko'ra sinflash demakdir. Nutqiy faoliyatga tayyorlash (tayyorlovchi, til mashqlari) va nutqiy faoliyatda ishtirok etishini ta'minlash (nutqiy, kommunikativ mashqlar) mashqlarning asosiy sinflash belgilari hisoblanadi [2].

Mashqlarni tipologiyalash, turlash, sinflash ham til o'qitish metodikasining bahsli jihatlaridan biridir. Mashqlarni sinflarga ajratishga ko'plab urinishlarni kuzatishimiz mumkin. Ayrim uslubshunoslar mashqlar tipologiyasi aniq bir kriteriyaga ko'ra amalga oshirilishi kerak, deb hisoblashsa ma'lumotning o'zgarish darajasiga ko'ra [3]; til elementlaridan foydalanishga imkon yaratishiga ko'ra [4]; gapirishga tayyorlashiga ko'ra [5] va boshqalar til mashqlarining turlari shunchalar ko'pki, hatto bir nutq turini o'rgatish mashqlarining o'zini ham yagona shartga ko'ra tiplashtirish mushkul, deb ta'kidlaydilar. Boshqa mutaxassislar mashqlar tipologiyasining 2-, 3- yoki 4-kriteriyalarini taklif qiladilar. Lekin taklif qilingan tipologiyalar aniq shartlarga ega emas va mashqlarni mukammal darajada qamrab ololmaydi.

Mashqlarni sinflashda til-nutq tushunchasidan foydalanish bu bo'linishni chet tili o'qitish jarayonida ham qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Bu tipologiya avvalo til mashqlari, so'ngra nutq mashqlari yordamida o'qitishga qaratilgan metodlarga asoslandi. Til mashqlari deganda, ma'lum bir til belgisini o'rgatishga yo'naltirilgan mashqlar tushunilsa, nutq mashqlari nutqni shakllantirishi kerak bo'lgan. O'z navbatida, nutq mashqlari aniq bir grammatik belgini emas, balki nutqiy muloqot

yordamida tilni o'zlashtirishni nazarda tutardi. Agar mashq leksik yoki grammatik bo'lsa, bu mashq alohida leksik yoki grammatik materialnigina o'rganishga yordam beradi va bunday til mashqlarida tabiiy nutq yo'q, deb hisoblangan. Bundan kelib chiqib, masalan, barcha grammatik mashqlar til mashqlari deb yuritilgan. Lekin tez orada metodik adabiyotlarda grammatik va leksik mashqlarga bo'lish muvaffaqiyatli emasligi aytiladi va bunga sabab qilib, bu mashqlar yordamida biror ko'nikmani shakllantirish mumkin emasligi, ushbu mashqlarni bajarish shart-sharoitlari bu bilimlar real qo'llaniladigan vaziyatlarga to'g'ri kelmasligi ko'rsatildi. Shundan keyin mashqlarning grammatik va leksik turlarini kommunikativ mashqlar bilan qorishtirish fikri paydo bo'ldi. Shunday qilib, "gibrid" mashqlar paydo bo'ldi: mashqlar maqsadiga ko'ra grammatik hisoblanar, lekin shu bilan bir qatorda, grammatik hodisalar turli xil tabiiy yoki shartli nutqiy muloqot vaziyati orqali o'zlashtiriladi. Yangi paydo bo'lgan "kombinatsiyalangan" mashqlar termini shunday mashqlarga nisbatan qo'llanildi. Kombinatsiyalangan – til aspektiga ko'ra aniq bir turdagi va nutqiy muloqot qorishmasi bo'lgan mashqlarning paydo bo'lishi bilan til va nutq mashqlariga ajratish grammatik, leksik va fonetik mashqlarga nisbatan ham qo'llaniladigan bo'ldi.

Shuni hisobga olgan holda, S.F.Shatilov mashqlarning yangi terminologiyasini taklif qildi: til (til aspektlariga yo'naltirilgan) va nutq (ma'lum til belgisiga yo'naltirilmagan) mashqlar [5]. Mashqlarni til aspektlarini o'rgatish doirasida (grammatika, leksika va fonetika) til va nutq mashqlariga bo'lish, aniq til materialini o'zlashtirishning umumnazariy asoslarini ishlab chiqishda o'z davri uchun katta qadam bo'lgan bo'lsa-da, klassifikatsiya ayrim qarshiliklarni keltirib chiqaradi [6]. Mashqlarni ajratishning asosi hisoblangan til va nutqni chegaralash til mashqlari nutqiy muloqotni ko'zda tutmaydi, nutq mashqlarida esa bu asosiy belgi degan ma'noni beradi. Fe'llarning tuslanishi va so'zlarning turlanishi (bu aniq til mashqlari) mashqlarida bu me'zon o'rinli. O'rganuvchilar bilan ularning dam olish kunlari haqida suhbat qurish esa nutq mashqidir. Ammo syujetli matnni tarjima qilish, turli savollarga javob berish kabi axborot almashinuvini talab qiladigan mashqlarni esa bunday osonlik bilan bu ko'rsatilgan guruhlarga kirita olmaymiz. Bundan tashqari, nutq mashqlari muloqot xarakteriga ega bo'lsa-da, ularda ham o'rganuvchining e'tibori ma'lum nutq birliklariga qaratilishi mashqlarning Shatilov taklif qilgan turlarga nomutanosibligini ajratishga qarshilik keltirib chiqaradi. Bizningcha, mashqlarni sinflashda S.F.Shatilov taklif qilgan nomlashdan foydalanish til o'qitish jarayoni markaziga til aspektlarini olib chiqib ularning til o'rganishdagi ahamiyatini nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirishdan ustun qo'yadi [5]. Til o'qitishdan maqsad o'rganuvchini muloqotga tayyorlash ekanligidan kelib chiqib, bu yondashuvning kerakli natijaga olib kelmasligini aytishimiz mumkin.

Mashqlarni sinflashning boshqa usuli ularni "tayyorlovchi- nutq oldi- nutq" mashqlariga bo'lishdir. Bu klassifikatsiya negizida bilim va ko'nikma tushunchalari yotadi. Bu tushunchalardan ko'plab lingvist va ulubshunoslarning intensiv ravishda foydalanishidan kelib chiqib, ularni izohlashda aniq bir qarorga kelib olish kerak. Bundan tashqari, "ko'nikma" tushunchasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda turlicha sharhlanadi [6]. Ko'pchilik psixologlar va ulubshunoslar tomonidan tan olingan nuqtayi nazarga ko'ra, ko'nikmalar bilimlarning avtomatizatsiyalashgan komponentlarini aks ettiradi va bajarilayotgan harakatning optimal mukammallik darajasi hisoblanadi. Barcha mualliflar ko'nikma tushunchasini "avtomatizm" bilan bog'laydilar. B.A.Lapidusga ko'ra, ko'nikma avtomatizm, "avtomatizm" esa, o'z navbatida, asosiy vazifa hisoblangan axborot almashish jarayonini tez, ortiqcha urinishsiz amalga oshiradigan harakat [4] demakdir.

Til materialini egallash ko'nikmlarni shakllantirishdan (tayyorlovchi mashqlar) to ikkilamchi bilimlarni shakllantirishgacha (nutqiy amaliyot) yo'l sifatida ko'rib chiqiladi. Bu klassifikatsiya differensial bo'lib, unda oraliq (nutq oldi) mashqlari ham ajratiladi. Yuqorida eslab o'tganimiz syujetli matnni tarjima qilish va turli xil savollarga javob berish mashqlari xuddi shu tur mashqlaridir.

#### **NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mashqlar tipologiyasi va tizimiga bo'lgan yondashuvlar tarixiy rivojlanish jarayonida sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Dastlabki davrlarda til aspektlariga yo'naltirilgan mashqlar ustunlik qilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda kommunikativ yo'naltirilgan mashqlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Mashqlarning asosiy tipologiyalari orasida til va nutq mashqlari, retseptiv va reproduktiv mashqlar, kompleks til mashqlari, o'quv va tabiiy-kommunikativ mashqlar muhim o'rin tutadi. Har bir tipologiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, til o'rgatish jarayonining turli bosqichlarida va maqsadlarida qo'llaniladi.



Samarali mashqlar tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar kompleks xarakterga ega. Bular orasida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barcha til aspektlari va nutqiy faoliyat turlarini qamrab olish, qiyinchilik darajasining o'sib borishi, o'zaro bog'liqlik, takroriylik va kommunikativ yo'naltirilganlik alohida ahamiyatga ega. Mashqlar tizimini shakllantirishda til o'rganuvchilarning psixologik xususiyatlari, til materialining murakkabligi va kommunikativ maqsadlar inobatga olinishi zarur. Bu omillarning muvozanatli hisobga olinishi mashqlar tizimining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi eng samarali hisoblanadi. Bunday tizim til bilimlarini amaliy muloqot jarayonida qo'llash imkonini beradi. Mashqlarni samarali qo'llash uchun ularning o'zaro bog'liqligi, ketma-ketligi va kommunikativ yo'naltirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu prinsiplar asosida tuzilgan mashqlar tizimi til o'rganish jarayonini yanada samarali va maqsadli qiladi.

O'tgan asrning 60-yillar boshlarida metodik adabiyotlarda mashqlarni ularda nutqiy muloqot aktiga taqlidning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra tiplarga ajratish taklif qilindi. Nutqiy mashqlar tushunchasining sinonimi sifatida kommunikativ mashqlar termini paydo bo'ldi. Bu terminning paydo bo'lishi bilan grammatik, leksik va fonetik mashqlar kommunikativ va nokommunikativlarga ajratila boshlandi. Bu terminlarning afzalligi ularning nutqiy faoliyat nazariyasi, muloqot nazariyasi va psixologlarning nutqiy harakat haqidagi izlanishlariga mos kelishi bilan bog'liq. Kommunikativ mashqlarda tildan foydalanish aktlari nutqiy harakatlarni aks ettiradi va nutqiy muloqotni talab qiladi. Lekin quyidagi ikkita holat bu atamadan foydalanishni qiyinlashtirgan. Birinchidan, kommunikativlik metodik adabiyotlarda bir ma'noda sharhlanmasdi. Agar mashq, hech bo'lmaganda, kommunikativ aktning tashqi tarafini aks ettirsa, bu mashq kommunikativ hisoblangan. Masalan, aytilgan gapning ta'kid yoki inkor qilinishi ham kommunikativlik hisoblangan. Ikkinchidan, mashqlardagi gaplar muloqot jarayoni uchun muhim bo'lsa, ya'ni ularni o'rganish muloqot jarayonida zarur bo'lsa, bu mashqlarni nokommunikativ deb hisoblab bo'lmazdi. Qator holatlarda mashqlarni turlarga ajratish ularda real muloqot xususiyatlarining mavjud yoki yo'qligiga qarab amalga oshirilgan. Bundan tashqari, "nutqqa oid" va "nutqqa oid bo'lmagan" mashqlar ham ajratilib, har ikki tur mashqlarida ham real nutq sifatlari mavjud bo'ladi.

Nutq mashqlari: asl nutq mashqlari (turli nutqiy faoliyatlar: gapirish, yozish, tinglab tushunish, o'qishda tabiiy muloqot mashqlari); o'quv nutqiy yoki shartli nutqiy mashqlar (o'qish sharoitida nutqiy kommunikatsiyaga taqlid qiluvchi mashqlar). Ko'rib turganimizdek, terminologik farqlarga qaramasdan, barcha mashqlar til materiali va nutq mashqlariga ajratilgan. Mashqlarni tahlil qilib ularni o'rganar, sinflarga ajratar ekanmiz, bundan bir narsani: ularni til o'rgatish jarayonida to'g'ri qo'llash va natijada o'rganuvchini eng maqbul mashqlar yordamida muloqotga mohirona tayyorlashni maqsad qilamiz. O'qituvchining mahorati ham shunda namoyon bo'ladi. Aslida, til o'rgatishga yondashuvlar, metodlar ustida tinmay izlanishlar olib borilishidan ham maqsad chet tili egallash jarayonini osonlashtirishdir. Shuning uchun ham uslubshunos olim S.Saidaliyev "Metod – bu ko'p kuch sarflamasdan, ko'p narsa o'rgata olishdir", deb ta'kidlaydilar [7].

Qachon til va nutq mashqlarining o'zaro eng maqbul faoliyatiga erishish mumkin degan savolga ko'plab olimlar turlicha javob beradilar. Qator olimlar til va nutq mashqlari munosabati bir-biridan qat'iy ajratilgan holda, ketma-ket usulda bo'lishi kerak, deb tasavvur qiladilar. Masalan, grammatik hodisalarni o'rganish uchun, ularning fikricha: ayni grammatik hodisani o'zlashtirish uchun ma'lum ishlarni bajarish va bunda barcha e'tiborni faqatgina til shakllariga jamlash, mazmunni vaqtinchalik bee'tibor qoldirish; o'zlashtirilgan grammatik hodisani nutq mashqlarida qo'llash uchun ma'lum ishlarni bajarish.

Lekin tajribada til mashqlarida o'zlashtirilgan bilimlar ulardan alohida bajariladigan nutq mashqlarida har doim ham to'g'ri qo'llanilmaydi. Shuning uchun ham, mashqlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi va yaxlit tizimni tashkil qilishi kerak. Aytish mumkinki, o'qitish tizimining negizi to'g'ri tashkillangan, o'zaro bog'langan, til va operatsion murakkabliklarga qarab o'sib boruvchi mashq tizimlaridir.

V.A.Buxbinder mashqlarni uch tipga ajratadi: informatsion, operatsion va motivatsion. U o'zining bu klassifikatsiyasini quydagicha izohlaydi. Birinchi bosqichda mashqlar materialni anglashni va o'zlashtirishni ta'minlashi, material haqidagi axborotni mustahkamlashi kerak. Ikkinchi bosqichda avtomatizmlarni rivojlantirish amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda esa nutqiy ko'nikmalar takomillashtiriladi [8]. Biz Buxbinderning informatsion mashqlarini axborot beruvchi, bilimni shakllantiruvchi; operatsion mashqlarni ko'nikma avtomatizmlarni rivojlantiruvchi; uchinchi

## PEDAGOGIKA

bosqichni takomillashtiruvchi mashqlar sifatida talqin qilib, bugungi zamon talabiga moslashtirishimiz mumkin. Bunda nutqiy ko'nikmalar faqatgina motivatsion bosqichda emas, har uchchala bosqich mashqlarida shakllantirilishi, rivojlantirilishi va takomillashtirilishi kerak.

Mashqlarni tipologiyalash va ularning tartiblangan tizimini yaratishga oid ko'plab salmoqli izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, chet tillari o'qitish jarayoniga mashqlarni to'g'ri tatbiq qilish ularning aktual va optimallarini tanlab olish, ulardan zamonaviy darsliklarda to'g'ri foydalanish va sistemallashtirish metodikaning muhim vazifalaridan bo'lib qolaveradi. Zamon o'zgargani sari til o'rganishning ahamiyati va til o'rganishga bo'lgan talab ham uni o'rganish usullari kabi o'zgaradi. Tabiiyki, turli usul va yondashuvlar turlicha mashqlardan iborat bo'ladi.

To'g'ri metod namoyondalaridan bo'lgan B.Eggert o'zining "Chet tillariga o'qitish mashqlari asosini tashkil etuvchi qonuniyatlar" nomli ishida mashqlarni nutq mashqlari (gapirish, tinglash, o'qish, yozish) va til aspektlari mashqlari (leksik, grammatik, fonetik)ga ajratadi. Uning mashqlarga qo'ygan quyidagi talablari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan e'tiborimizni tortadi:

a) mashq xarakteri o'zlashtirilayotgan bilimga mos bo'lishi zarur, tinglash ko'nikmasini oshirish uchun tinglash mashqlaridan foydalanamiz. Biroq har qaysi til ko'nikmasini o'rgatishga qaratilgan mashqlarda bir vaqtning o'zida boshqa nutq turiga xos elementlarning ham mavjud bo'lishi, bu mashqlarning boshqa nutq turlarida ham qo'llanilishi mumkinligini bildiradi;

b) til shakllarining mazmuni va qo'llanilishi shu shakllarga mos faoliyat tarzida o'rganuvchilarga qiziqarli va yaqin bo'lgan vaziyatlar yordamida taqdim qilinganda tez o'zlashtiriladi;

v) til shakllarining global o'zlashtirilishi ularning tarkibiy qismlari tahlili bilan birga olib borilishi kerak;


g) har qanday til hodisasi, turli kontekstlarda taqdim qilinganda yaxshiroq o'zlashtiriladi;

d) har qanday yangi til hodisasi avval o'rganilganlari bilan hamda ona tili bilan solishtirilganda yaxshiroq o'zlashtiriladi.

e) til o'rgatish jarayonida og'zaki mashqlar bosh ahamiyatga ega bo'lib, ular nutqiy faoliyatning istalgan turini rivojlantirishda muhimdir.

G.Palmer ishlab chiqqan mashqlar sistemasi ham til ko'nikmalarini egallash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. G.Palmer mashqlarni to'liq retseptiv hamda retseptiv va reproduktiv tiplarga ajratadi. Birinchi tip o'z ichida anglanmagan (unconscious) va anglangan (conscious) mashqlarga bo'linadi. Anglanmagan mashqlarning vazifasi o'rganuvchilar e'tiborini shakli va alohida so'zlarning ma'nosiga qaramasdan, o'qituvchi qo'llayotgan iboralarning umumiy mazmuniga qaratishdan iborat bo'lgan. Buyruq gaplarni bajarish mashqlari xuddi shu tur mashqlariga taalluqli hisoblanadi. Anglangan nutq mashqlari esa o'rganuvchilar e'tiborini tilning fonetik, grammatik va leksik hodisalariga qaratishi kerak. Ikkinchi tip mashqlar: retseptiv va reproduktiv mashqlar faqatgina bilimni qabul qilishni emas balki nutq reproduksiyasini ham taqozo qiladi. Bu tip mashqlar uch turga bo'linadi: o'rgatuvchining ortidan qaytarish, shartli suhbat (bunda o'rganuvchilar o'qituvchining savoliga javob beradilar) va turli mavzulardagi suhbat.

### Til o'rganish mashqlariga qo'yilayotgan talablar tahlili



**1-rasm. Til o'rganish mashqlariga qo'yilayotgan talablar tahlili**

I.A.Gruzinskaya o'zining mashqlar sistemasiga o'rganuvchilarga tilni har tomonlama o'rgatish talabini qo'yadi va mashqlarni: 1. Fonetik-orfografik; 2. Grammatik; 3. Leksik; 4. Aktiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi kabi sinflarga bo'ladi. Gruzinskayaning mashqlar tipologiyasiga yondashuvidan kelib chiqadigan mashqlar sistemasiga talablar quyidagicha:

1. Mashqlarning ketma-ketligi. Har qanday til hodisasi o'zlashtirishning uch bosqichidan o'tishi kerak:

a) retseptiv, tanishtiruvchi, saralovchi va guruhlovchi mashqlar;

b) yarimproduktiv, berilgan til materialini qaytarish, namunaga qarab qilinadigan mashqlar;

d) reproduktiv, bu bosqichda u yoki bu til hodisasi to'liq o'zlashtirilib o'z fikrini bayon etishda erkin foydalana olinishi kerak bo'ladi.

2. Turli mashqlarni qo'llashdagi doimiylik. Har o'quv yili uchun mashqlarning tayanch tiplari tanlab olinishi kerak. Ular bilan bir qatorda boshqa yordamchi mashqlar ham qo'llanilishi va bu berilgan til materialini turli til aspektlari tomonidan o'rganilishiga yordam berishi kerak.

Til mashqlari deganda, til materiali bilan tanishtiruvchi har qanday mashqlarni tushunamiz. Bunda o'rganuvchining e'tibori til materialining shakliga, ma'nosiga va ishlatilishiga qaratiladi. O'rganuvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan til materilini ikki kategoriyaga ajratish mumkin: a) boshqa o'xshashlari bilan solishtirmay o'zlashtirish mumkin bo'lgan til hodisalari va b) o'xshashlari bilan solishtirilmay o'rganish mumkin bo'lmagan til hodisalari. Shuning uchun til mashqlarini ham ma'lum bir vaziyat va kontekstsiz yoki doimo vaziyat va kontekstda keladigan mashqlarga ajratamiz.



Birinchi mashqlar ushbu tilda o'xshashlari (analoglari) mavjud bo'lmagan yoxud, o'rganuvchiga hali ma'lum bo'lmagan til hodisalarining har qanday shakli va ishlatilishini o'zlashtirishga xizmat qiladi. Nutq tovushlarining shakllanishi va boshqalar kabi. Ikkinchi mashqlar o'rganilayotgan til tizimida sinonimlari hamda o'xshashlari mavjud bo'lgan va shu sababdan ma'lum kontekstga bog'liq bo'lgan til hodisalarini o'zlashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, fe'lining o'tgan zamon shakllari qo'llanilishi faqatgina ish-harakatni o'tgan zamonda ifodalashnigina emas, balki kontekstdan kelib chiqib shu shakllardan birini tanlashni ham talab qiladi. Xuddi shu kabi aniq va noaniq artikllarni tanlash ham kontekstdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Yangi til hodisasini o'rganishda til mashqlarini nutq mashqlaridan farqlaydigan va ustun qo'yadigan xususiyati, ularning til hodisasi bilan tanishishga va minimal vaqt ichida ushbu hodisaga katta e'tibor qaratib, uni qisman o'zlashtirishga yordam berishidir. Metodikada til mashqlari termini o'rniga tayyorlovchi, nutqqacha va o'quv - kommunikativ mashqlar terminlarini qo'llash quyidagi sabablarga ko'ra noo'rin bo'lishi mumkin.

Barcha mashqlar ham tayyorlovchi bo'lganligi sababli, alohida bir mashq tipini tayyorlovchi deb atay olmaymiz. Nutqqacha atamasi ham mashq tipini emas, uning qachon bajarilishidan darak beradi. O'quv-kommunikativ termini o'zida ikkita bir-biriga qarama-qarshi tushunchani jamlagani uchun undan bir tip mashqlarini ifodalashda foydalanish ayrim tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Nutq mashqlari nutqning ma'zmuniga qaratilgan mashqlardir. Nutq mashqlaridan foydalanishning ahamiyati va maqsadga muvofiqligi borasida turli xil qarashlar mavjud. Ayrim uslubshunoslar til o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan barcha mashqlar nutq mashqlaridan iborat bo'lishi kerakligini, chunki bu mashqlar yordamida til materialiy yaxshiroq va mustahkamroq o'zlashtirilishini ta'kidlasalar, boshqa uslubshunoslar til mashqlari ham xuddi nutq mashqlaridek muhim ekanligini va til o'qitish jarayonida til va nutq mashqlari 1:4 munosabatida berilishi kerakligini aytadilar. Lekin bu munosabat yetarlicha asosga ega emas. Bu munosabat til materialining xarakteri va uning leksika, fonetika yoki grammatikaga tegishli ekanligidan kelib chiqishi kerak.

O'zlashtirilishi uchun til mashqlari qo'llaniladigan barcha til hodisalari nutq mashqlari yordamida mustahkamlanishi kerak. O'rganilgan til hodisalarining to'liq o'zlashtirilganini nutq mashqlarini bajarish orqali bilib olish mumkin. Til o'rgatish jarayonida qo'llanilayotgan nutq mashqlari til mashqlaridan son jihatidan ustun bo'lishi kerak. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, ularning munosabatini aniq sonlar bilan berish mushkul.

Retseptiv va reproduktiv mashqlar ikki xil til faoliyatini farqlash bilan bog'liq. Bular tinglab tushunish va gapirish. Bu faoliyatlarning har birida ham retsepsiya, ham reproduksiya bor. Biz tinglaganimizda eshitganimizni ongimizda (ichki nutqimizda) takrorlaymiz, gapirganimizda esa o'z nutqimizni eshitamiz. Biz eshitganimizda retsepsiya, gapirganimizda esa reproduksiya yetakchilik qiladi. Chet tilida gapirishni o'rgatish uchun reproduktiv mashqlardan foydalanish kerakligiga shubha yo'q va shuning uchun ham, bu holatga dalil va misollar keltirib o'tish shart emas. Lekin retseptiv mashqlar metodikada ko'plab bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Aksariyat uslubshunoslar o'rganuvchilar gapira olgan narsalarini tinglab ham tushuna oladilar deb ishonganlar va retseptiv mashqlarga e'tibor qaratmaganlar. Ayrim uslubshunoslar esa til o'rganish jarayonini ona tilini o'rganish jarayoniga qiyoslab, chet tili o'rganishni aynan xorijiy nutqni eshitishdan boshlashni taklif qilganlar. Ammo ular ham reproduktiv mashqlar nutqni to'g'ri qabul qilishni ham o'rgatadi, deb hisoblashgan va o'z o'qitish tizimlariga maxsus retseptiv mashqlarni kiritmaganlar. Lekin amaliyot o'rganuvchi har doim ham gapira olgan til materialini tinglab tushuna olmasligini ko'rsatdi. Bu holat o'rganuvchiga notanish bo'lgan nutq tempi, shaxsiy ovoz obrazlari bilan gapiruvchi nutqiy jarayonini qabul qilishdagi ovoz obrazlarining nomutanosibligi va bundan tashqari, gapiruvchi nutqining boyligi va uning o'rganuvchi bilmaydigan so'zlar va grammatik strukturalardan foydalanishi mumkinligi bilan izoxlash kerak bo'ladi.

Til aspektlariga ko'ra, mashqlar til hodisalarini bir-biridan ajratgan holda mashq qildirishni nazarda tutadi. Masalan, fonetik, grammatik va leksik hodisalar faqat ulardan biri uchungina xos bo'lgan mashqlar yordamida bir til hodisasiga boshqasi chog'ishtirilmay o'rgatilishi kerak. Lekin bu yo'sinda faqatgina alohida tovushlar talaffuzini o'rgatish mumkin. Til hodisalarini bir-biridan mustaqil ravishda o'rgatish mumkin emas. Grammatikani o'rgatish jarayonida leksik bilimlar ham

beriladi, yoxud har qanday soʻzni oʻrganar ekanmiz, grammatik qoidalar va talaffuz meʼyorlariga murojaat qilamiz.

Kompleks til mashqlari esa bir til hodisasini mashq qilish jarayonida boshqa bir til hodisasini ham takrorlash imkonini beradi.

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi mashqlar tizimi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- 1) shaxsning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishi (fikrlash, xotira, tasavvur);
- 2) mashqlarning vazifasi, materiali va bajarilish uslubini hisobga olishi;
- 3) barcha til aspektlari va nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirishi va oʻzlashtirilishini taʼminlashi;
- 5) mashqlarning rod va turlarini qiyinchilik darajasining oʻsib borishiga qarab joylashi;
- 6) oʻzaro bogʻliqlik: mashqlar har bir mashq oʻzidan keyingi mashqqa tayyorlaganida va, oʻz navbatida, keyingi mashq oʻzidan avvalgi mashqda oʻrganilgan bilimni mukkamallashtira olgandagina samarali boʻla oladi. Mashqlar orasida mantiqiy bogʻlanish mavjud boʻlishi lozim;
- 7) alohida bilim va koʻnikmalarning amaliyotda u yoki muayyan nutqiy faoliyat koʻrinishida qayta ishlay olishi;
- 8) nutqiy faoliyat va til materialining takroriyliigi: takroriyliksiz mashqlar sistemasi oʻz mohiyatini yoʻqotadi, chunki mashqlar oʻqitish tizimiga maʼlum bilimni takrorlash va qayta ishlash uchun tatbiq qilinadi;
- 9) mashqlarning kommunikativ yoʻnaltirilganligi:

## 2-rasm. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga qoʻyilayotgan talablar

Bundan tashqari, I.V.Rahmanov oʻquv va tabiiy-kommunikativ mashqlarni ham taʼriflab oʻtadi. U oʻquv mashqlariga chet tili taʼlimi jarayonida qoʻllaniladigan biror bir til hodisasini yoki ogʻzaki nutqni oʻrgatishga qaratilgan har qanday mashqlarni kiritadi. Tabiiy-kommunikativ mashqlar esa haqiqiy oʻrganilayotgan til muhiti yaratiladigan, oʻrganuvchiga ona tilidan foydalanish ruxsat berilmaydigan mashqlardir. Rahmanov kiritgan "tabiiy-kommunikativ" terminini kommunikativning oʻzi bilan oʻzgartirishimiz maqsadga muvofiq boʻladi. Avvalambor, oʻrganilayotgan til muhiti boshqa tilda soʻzlashuvchilar uchun sunʼiy boʻladi, bundan tashqari, kommunikativ mashq atamasining oʻzi oʻrganilayotgan til muhitini yaratishga harakat borligini bildirish uchun yetarli.

Uslubshunoslar takrorlovchi (mashq qildiruvchi) va nazorat mashqlarini ham ajratishadi. Takrorlovchi mashqlarning vazifasi oʻrganilgan til materialini turli nutq turlarida qoʻllay olishni oʻrgatish boʻlsa, nazorat mashqlari yordamida oʻrganilgan til bilimlari tekshirib olinadi.

Mashqlar tiplarini izohlashdagi eng asosiy vazifa oʻquv jarayonida bajaradigan vazifasi, faqat shu tipga xos boʻlgan hususiyatlaridan kelib chiqib barcha mashq sistemalaridagi mashqlarning tiplarini aniqlab olishdir. Bunda mashq bajariladigan material va uning bajarilish usullari ham oʻrganiladi. Uslubshunoslarning fikriga koʻra, mashq tiplari umumiy xarakterga ega.

## PEDAGOGIKA

Ularning pedagogik jarayonga tatbiq qilinishi uchun o'qitish amaliyotida foydalaniladigan va, o'z navbatida, tur va ularning variantlariga bo'linadigan mashq rodlari kerak bo'ladi.

Til o'qitish jarayonida qo'llaniladigan mashqlarni o'qitish maqsadimizga ko'ra tanlab olganimizdan so'ng, ularni to'g'ri tizimlab qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. I.V.Raxmanovga ko'ra, chet tillarini o'qitish mashqlari tizimi deganda bir-biri bilan vazifasi, materiali va bajarilish usuli orqali bog'langan mashqlar majmuyi tushuniladi. Tizimning hech bir elementini o'zgartirib bo'lmaydi. Mashqlarning rodlari osondan qiyinga qarab o'sib borishi kerak bo'lgan turlarga bo'linadi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, mashqlar tizimi quyidagi talablarga javob berishi lozim: 1) shaxsning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishi (fikrlash, xotira, tasavvur); 2) mashqlarning vazifasi, materiali va bajarilish uslubini hisobga olishi; 3) barcha til aspektlari va nutqiy faoliyat turlarini rivojlantirishi va o'zlashtirilishini ta'minlashi; 4) mashqlarning barcha tiplari va rodlarini o'z ichiga olishi kerak; 5) mashqlarning rod va turlarini qiyinchilik darajasining o'sib borishiga qarab joylashi; 6) o'zaro bog'liqlik: mashqlar har bir mashq o'zidan keyingi mashqqa tayyorlaganida va, o'z navbatida, keyingi mashq o'zidan avvalgi mashqda o'rganilgan bilimni mukkamallashtira olgandagina samarali bo'la oladi. Mashqlar orasida mantiqiy bog'lanish mavjud bo'lishi lozim; 7) alohida bilim va ko'nikmalarning amaliyotda u yoki muayyan nutqiy faoliyat ko'rinishida qayta ishlay olishi; 8) nutqiy faoliyat va til materialining takroriyiligi: takroriyiksiz mashqlar sistemasi o'z mohiyatini yo'qotadi, chunki mashqlar o'qitish tizimiga ma'lum bilimni takrorlash va qayta ishlash uchun tatbiq qilinadi; 9) mashqlarning kommunikativ yo'naltirilganligi: mashqlar yordamida shakllantirilgan nutqiy bilim va ko'nikmalar o'rganilayotgan tilda muloqotga kirisha olish imkonini beradi. Bu esa nutqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirgan mashqlar sistemasi kommunikativ maqsadga yo'naltirilganini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, til bilimlarini amalda qo'llashda va mustahkamlashda muhim hisoblangan chet tili o'qitish jarayonining asosi bo'lgan mashqlarni shakllantirish va dars jarayonida qo'llash bir qancha omillar asosida amalga oshadi. Bu omillar zamon talablariga javob beruvchi metod va texnologiyalardan to'rganuvchilarning psixologiyasigacha bo'lgan komponentlarni o'z ichiga oladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Academia, 2006. – 179 с. (Galskova N.D., Gez N.I. Chet tillarini o'qitish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodika.)
2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с. (Azimov E.G., Shchukin A.N. Metodik atamalar va tushunchalarning yangi lug'ati (tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti).)
3. Гез Н.И. Система упражнений и последовательность развития речевых умений и навыков // Иностранные языки в школе. - 1969. - № 6. - С. 29-40. (Gez N.I. Mashqlar tizimi va nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish ketma-ketligi.)
4. Лapidус В.А. Проблемы содержания обучения языку в языковом вузе. – М., 1986. – С.17. (Lapidus B.A. Til oliy o'quv yurtlarida til o'qitish mazmunining muammolari.)
5. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. - Л.: Просвещение, 1986. - 223 с. (Shatilov S.F. O'rta maktabda nemis tilini o'qitish metodikasi.)
6. Бартенева И.Ю. Методическая типология упражнений для обучения профессионально-ориентированному иноязычному общению студентов неязыковых специальностей // Вестник Костромского государственного университета им. Н.А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. Социокинетика. - 2014. - Т. 20. - № 1. - С. 227-231. (Barteneva I.Yu. Nofilologik mutaxassislik talabalarini kasbiy yo'naltirilgan chet tili muloqotiga o'rgatish uchun mashqlarning metodik tipologiyasi.)
7. Саидалиев С. Тиллар ўқитиш методикаси ва таълим технологиялари (олмон тили мисолида). Наманган, 2019. – 5 б. (Saidaliyev S. Tillarni o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari (nemis tili misolida).)
8. Бухбиндер В.А. О системе упражнений. Общая методика обучения иностранным языкам: хрестоматия. – М., 1991. – С.92-99. (Buxbinder V.A. Mashqlar tizimi haqida. Chet tillarini o'qitishning umumiy metodikasi: xrestomatiya.)